XALQ DEPUTATLARI UCHQUDUQ TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

Uchquduq tuman, Amir Temur ko‘chasi – 28, tel: (79) 222-00-05

2023 - yil 26 - iyun VI-69-77-5-76-K/23 Uchquduq tumani hokimligi

Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil birinchi chorak daromadlari rejasidan oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi” ning 27-, 126-moddasi, Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining, Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida” gi KQ-331-IV sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-,24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi “Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 132-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Bobomurodov)ga: tuman mahalliy byudjetining 2023-yil birinchi chorak daromadlari rejasidan oshirib bajarilgan qismi hisobidan “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga o‘rnatilgan tartibda 115,0 mln so‘m mablag‘ ajratsin.

3. Tumandagi tegishli tashkilot, muassasa rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan

maqsadli va samarali foydalansin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Bobomurodov), tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (R.Sultonov) mahalliy byudjetining 2023-yil birinchi chorak daromadlari rejasidan oshirib bajarilgan qismi hisobidan ajratiladigan mablag‘lar amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsinlar.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiya va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (O.Hikmatov), ijrosini ta’minlash tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari D.Shakarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.Xamroyev**